

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XUDOYBERDIYEVA UMIDA

**5141600–BOSHLANG‘ICH TA‘LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISH
YO‘NALISHI BO‘YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN
«BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI
ASOSIDA TARBIYALASH» MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: o‘qituvchi N.Nuraliyev

MUNDARIJA

KIRISH.....

I.BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI ASOSIDA TARBIYALASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.....

1.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga doston atamasini tushutirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....

1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning mazmuni.....

II.BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI ASOSIDA TARBIYALASHNING AMALIY ASOSLARI.....

2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning amaliy ahamiyati.....

2.2. Tadqiqot yuzasidan o‘tkazilgan yakuniy tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari

Umumiy xulosalar va metodik tavsiyalar.....

Adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzabligi. Mustaqil O‘zbekistonda erkin huquqiy demokratik davlat qurish barqaror rivojlanib bormoqda. Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lidan, Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil asosida mustaqil amalga oshirmoqda. Aqliy bilim, aqliy tarbiya berishni yanada kuchaytirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqishga ehtiyoj tobora ortmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida yashashni hamma va har bir fuqaro o‘rganishi kerak buning uchun yoshlarda, aniqrog‘i, kichik yoshdagi o‘quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish, ularda jamiyatda aqliy sohadagi qiyin vaziyatlarning mustaqil yechimini topish ko‘nikmalarini hosil qildirish dolzarb muammodir. []

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasini aqliy jihatdan rivojlantirish amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda sodir bo‘layotgan tub aqliy islohatlarni, bozor iqtisodiyotiga o‘tish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Aqliy qonunlarning talablari va amal qilish xususiyatlari bilan hisoblashmay turib muvafaqqiyatga erishib bo‘lmaydi. Aqliy jarayonlar va hodisalarni bilishda, fanlar, eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarini shakllantirish va uning roli o‘ziga boradi.

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli boshlang‘ich ta‘lim mazmuni tubdan o‘zgardi. Milliy va ma‘naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o‘quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar yaratildi. Dunyoqarashi, Mustaqil respublikamizda kichik yoshdagi o‘quvchilarni yangi talab asosida o‘qitish va tarbiyalashga alohida e‘tibor berildi. Xalq maqollari yordamidalar bo‘yicha davlat ta‘lim standarti, boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi yaratildi. Ushbu masalaga o‘tmish mutafakkirlari ham katta e‘tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ma‘rifatparvarlarning asarlarida mehnatsevarlik masalalari alohida ta‘kidlanadi. Bu yo‘nalishda falsafa, pedagogika, psixologiya, adabiyot, tarix, milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari kabi ijtimoiy fanlar sohasidagi olimlar bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarganlar. I.Mo‘minov, T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuhamedov, E.Yusupov, Z.g‘afurov, X.Shayxova, M.Xolmatova, F.Ismoilov, M.Imomnazarov kabi faylasuf olimlar inson ma‘naviyatini shakllantirish va tarbiyalash muammolarini ilmiy nazariy jihatdan ishlab chiqqanlar.

Pedagogika nazariyasini takomillashtirishga hissa qo‘shgan olimlardan M.Ochilov, J.Xasanboyev X.Ibragimov, M.Inomova, S.Nishonova, M.quronov, J.Yuldashev, X.Yuldashev S.X.Fayzulina U.Mahkamovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida uzluksiz ta‘lim tizimida, oilada, shaxsni komil inson darajasida tarbiyalashning u yoki bu pedagogik ilmiy muammolari yoritilgan.

Shuni aytish kerakki, boshlang‘ich ta‘lim muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham Q.Abdullayeva, R.Safarova B.Adizov, R.Movlonova, M. Haydarov, T.Hasanov, O.Xasanboyeva, B.Raximov, D.Xamroveva, N.Valiyev, N.Jumayeva kabilarning ilmiy asarlarida boshlang‘ich ta‘lim mazmuni, kichik yoshdagi o‘quvchilarni mehnat, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do‘stlik, o‘rtoqlik kabilar

nazariy jihatdan yoritilgan. X.Bobomirzaev, U.Rajabovlarning ishlarida xalq maqollari yordamida o'quvchilarini xalq og'zaki ijodini o'rganish asosida tarbiyalash muammolari pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan. []

Respublikamizda bu borada bir qancha taniqli pedagoglar nazariy va amaliy ishlar olib borganlar. Biroq ularning tadqiqot ishlari tahlili ko'rib chiqilganda kichik yoshdagi o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishi yaxlit ilmiy muammo sifatida qaralmagan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab berilgan "Mehnat bozori"ga xos kichik yoshdagi o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish va uning o'rni maxsus tadqiq qilinmagan. Ayniqsa, aqliy va ijtimoiy munosabatlar yechimida sharqona tarbiyaning mohiyati ilmiy asosga qo'yilmagan. Ushbu yo'nalishda yangicha pedagogik texnologiyalar hamda ularning o'ziga xos yechimlari topilmagan. O'quvchi erkin shaxs sifatida aqliy munosabatlar olamida o'zining madaniy mavqeini to'liq anglab olish imkoniyatiga qodir emas. O'z yechimini kutayotgan bu masalalar muammoning naqadar dolzarbligini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu muammoni qo'yilishi va ilmiy jihatdan hal etilmaganligiga ko'ra bitiruv malakaviy **ishi mavzusi** " Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash " deb belgilandi.

Tadqiqot ishining maqsadi Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy mohiyati va tegishli shart-sharoitlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti: umumiy o'rta ta'limning o'quv-tarbiya jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning vositalari, shakllari, metodlari.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning nazariy va ijtimoiy mohiyatini asoslash.
2. O'quvchilarga xalq dostonlari asosida bilim berishning yaxlit tizimini ishlab chiqish.
3. Tajriba-sinov orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq dostonlari haqida bilim berishning samarali yo'llarini aniqlash.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning takomillashuviga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqot ishining metodologik asoslarini milliy g'oya va milliy mafkura yo'nalishida ta'limning insonparvar, demokratik tamoyillari negizida shaxs ma'naviyatini erkinlashtirish hamda uning ustivor yo'nalishlarini amalga tatbiq etishga oid nazariy yondashuvlar; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlod kamoloti to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlari; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan daxldor qonunlar; buyuk allomalarning ilmiy-nazariy ta'limotlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi.

Agarda:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda ilmiy g'oya ko'rinishida o'zining ilmiy-nazariy asosiga ega bo'lsa;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda sharqona ma'naviy-tarbiyaviy asosga qo'yilgan bo'lsa;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda o'zining amaliy ifodasini topgan bo'lsa;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda axloqiy va aqliy qobiliyat hamda o'z-o'zini tarbiyalash negizida qurilgan bo'lsa;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

-pedagogika, ona tili va adabiyot fanlarida ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish o'rni aniqlandi;

-«ma'naviy tarbiya» tushunchasining ilmiy-pedagogik ta'rifi berildi;

-etuk kadrlar tayyorlashda boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning ahamiyati va mavqei belgilandi;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy xislat va fazilatlar hosil qiluvchi tarbiyani berishning yaxlit tizimi ishlab chiqildi;

-Etuk kadrlar tayyorlashda kichik yoshdagi o'quvchida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiyani berishning ijtimoiy mohiyati asoslab berildi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning nazariy asoslari tadqiq etildi;

-pedagogik jarayonning bosh maqsadi «komil inson tarbiyasi» ekanligiga asoslangan xolda samarali va natijali tarbiyani berishning samarali mezonlari axloqiy barkamollik, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash, xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy asarlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ijodkorlikni rivojlantirish ekanligi tadqiq etildi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashda inosniy va ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar, bo'lajak boshlang'ich sinf hamda ona tili va adabiyoti o'qituvchilarining kasbiy-madaniy faoliyati darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining natijasida olingan, ishlab chiqilgan ilmiy tavsiya va mezonlar bakalavr yo'nalishidagi o'qituvchi kadrlar tayyorlashda, pedagogik amaliyotini takomillashtirishda, jamiyatda ma'naviy-ijtimoiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda xizmat qiladi.

Tadqiqotning amalga oshirish bosqichlari:

1. – Bitiruv malakaviy ish yo'nalishini belgilovchi falsafiy, sotsiologik, psixologik-pedagogik, filologik va metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil etish. BM ishining dastlabki holatini o'rganish; o'quvchilarning dars va darsdan tashqari jarayonidagi faoliyatini kuzatish; BMI maqsadi, ob'ekti, predmeti va vazifalarini belgilash; BMI metodikasini ishlab chiqish.

2. – BMI ning ilmiy-nazariy yo'nalishini belgilash; tadqiqot ob'ektiga oid dastur, o'quv reja va darsliklarni o'rganish; ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; shakllantiruvchi eksperimentni bosqichma-bosqich yakunlash; yangi pedagogik texnologiyalarni tadqiqot ishida qo'llash; olingan ilmiy faktlarni tahlil etish.

3. - BMIga oid ilmiy faktlarni saralash, ularni tizim holiga keltirib, ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida amalga tatbiq etish hamda BMI ko'rinishida umumlashtirish.

Tadqiqot bazasi: Guliston shahridagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktablari.

BMI kirish, ikki bob, to'rt bo'lim, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 60 sahifani tashkil etadi.

BMI ning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning shakllanganlik darajasi hamda uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich hamda ona tili va adabiyoti fanlari o'qituvchisida kichik yoshdagi o'quvchiga ma'naviy-axloqiy tarbiyani berishning mavjud holati qisqacha tahlil etilgan, shuningdek, BMI ning maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilgari surilgan farazlar, metodologik asoslari, metodlari, ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilgan holatlar batafsil bayon qilingan.

I.BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI ASOSIDA TARBIYALASHNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI.....

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga doston atamasini tushutirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Ma'lumki, o'zbekistonning Davlat mustaqilligi tufayli jamiyatimizning turli jabhalarida ro'y berayotgan beqiyos o'zgarishlar sarasida uzluksiz ta'limning asosiy negizi bo'lgan boshlang'ich ta'lim bo'yicha konsepsiya, boshlag'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari qabul kilindi. Unda bolalarning bilimlarini izlashtirishlari uchun lozim bo'lgan talablar q'oyilgan. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasining bosh yo'nalishi pedagogika fani bilan boshlang'ich ta'limning aloqadorligini mustahkamlash va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinf davlat ta'lim standartlarida ona tili, matematika, tabiat, inson va jamiyat ta'lim sohalarini bo'yicha ko'rsatilgan yo'nalishlarda «O'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, savodxonlik malakalarini shakllantirish bilan birga bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini oshirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his etishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf - odatlarni iziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga» alohida ahamiyat berilgan. []

Shunday ekan xalqimizning urf - odatlaridan chuqur o'rin olgan boshlang'ich sinf o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy istiqloq g'oyasining asosiy negizini tashkil etadi. Chunki, xalqimizning qadim-qadimdan avloddan avlodga o'tib kelayotgan insonparvarligi bugungi kunda jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirishda, mustaqil o'zbekistonda demokratik, insonparvar davlatni barpo etishda muhim o'rin tutadi. An`ana – o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan – avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir.

Odat (urf-odat) – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalari. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlar holidan xabar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining eng yaxshi milliy odatlari hisoblangan.

Agar an`ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrab olsa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya`ni kishilar turmushi, mehnati, hulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida ko'proq mavjud bo'ladi.

«Odat» degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining harakterida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan bajariladigan harakat ma`nosini bildiradi.

Marosim - bu ko'pincha an`ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega. Masalan, aqiqa – ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug' qadash) marosimi, o'rimga kirishish marosimi va hokazolar.

Odatni kundalik hayotning turli vaqtida uchratish mumkin bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Uning asosiy burilish daqiqalarini (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lish kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimning avloddan-avlodga o'tadigan ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga, bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik

bo'lishgan, yorqin kelajak uchun niyatlar qilishgan. har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilgan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi.

Ko'pincha an'ananing tarkibiy qismi-odat, odatning muhim bir bo'lagi-marosim bo'ladi. Shu sababli inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta «nuqtalar»ni nishonlash jarayonida ham an'ana, ham odat, ham marosim o'zaro uyg'unlashgan holda sodir bo'lishi mumkin.

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. O'zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san'atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an'analarda og'zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sugdiylar, xorazmiylarga mansub urug' va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ularning kattagina qismi o'zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo'lgan urug' 4 va qabilalarda patriarxal-urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumning yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan.

O'zbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Uning eng qadimgi namunalari saqlanib qolmagan. O'tgan asrda yozib olingan dostonlargina bu janrning ko'p davrlar osha xalq baxshilari hofizasida og'zaki ravishda muayyan o'zgarishlar bilan bizgacha etib kelganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ularni xalq baxshilari faoliyatidan ajratib o'rganish mumkin emas.

Baxshilar. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi — doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir. H.T.Zarifovning yozishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha *baxsha*, *bag'sha* so'zlaridan olingan bo'lib, *ustod*, *ma'rifatchi* degan ma'nolarni beradi. O'zbeklarda baxshi — keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Xalq orasida baxshi so'zi turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan. Ko'pchilik erlarda professional dostonchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Uzoq o'tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajargan. Keyinchalik esa, kasbda muayyan ajralish yuzaga kelgan. Ko'pchilik erlarda esa, ikkinchi vazifani bajaruvchi shaxs qushnoch, duoxon, kinnachi kabi turli-tuman so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zi turkiy xalqlarda bunday farqlanishni yanada yaqqolroq ko'ramiz. Masalan, baxshi —turkmanlarda professional dostonchi, qozoq va qirg'izlarda afsungar, duoxon, folbin. Ammo bizga ma'lum o'zbek baxshilari va ularning ustozlari baxshilik san'atini turli afsungarlik yordamida kasal boquvchilik vazifasi bilan qo'shib olib bormaganlar. Biroq dostonchilik san'atini kasal boquvchilik duoxonlik bilan qo'shib olib boruvchi baxshilar haqida ayrim ma'lumotlar borki, uzoq o'tmishda boshqa ko'pchilik xalqlar ijodkorlari kabi o'zbek dostonchilari ham bu ikki vazifani barobar bajargan bo'lishlari kerak. Bir qator baxshilarning hozir ham o'z san'atlarini sir tutib, uni «ilohiylashtirishlari», baxshilik san'ati haqida xalq orasida mavjud bo'lgan turli-tuman afsonalar buni yanada tasdiqlaydi. []

Xalq dostonchilarini O'zbekistonning ayrim erlarida baxshi so'zidan boshqa nomlar bilan ham yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sanovchi, ayrim tumanlarda jirov, jirchi, oqin, oxun va hokazo.

O'zbeklarda xalq dostonchisini shoir deb atash ham keng tarqalgan. Shoir arabcha so'z bo'lib, poetik asarlar ijodkori bo'lgan yozma va og'zaki adabiyot vakillariga nisbatan qo'llaniladi. Xalq ijodida badihago'y ijodkorlar, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi

variantlarini, hatto yangi dostonlarni ham yarata oladigan baxshilar shoir deb ataladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'lkani shoir va boshqalar.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko'p erlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni, asosan, dutorda ijro etadilar, ularga g'ijjak va balomonda sozandalar jo'r bo'ladi. 30-yillarda Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansamblga doirachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari bo'ldi. Bola baxshi va uning ansambli bunga misol bo'ladi. Xorazmda ba`zan epik asarlar yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham mavjud. Bunday hollarda ularni baxshi emas, balki sozchi deb yuritilgan. Masalan, Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshkalar. Sozchilar epik asarlarni to'la ijro etishdan ko'ra, undan parchalar, termalar va o'zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berganlar.

Demak, epik asarlarni elga etkazishda O'zbekistonning deyarli barcha erlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda, asosan, jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, prozaik o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos ifodali tilda bayon etiladi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb yuritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgai.

Xalfachilik san`ati ikki xil: a) ansamblli xalfalar; b) yakka xalfalar. Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat. Ya'ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi, ba`zan raqsga tushadi) va o'yinchilar (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba`zan doira chaladi) birlashib, ansamblni tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doira jo'rligida kuylaydilar. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan Yoki qo'lyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'qish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to'y qo'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Roziya Matniyozov qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro'zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar ko'proq «Oshiq g'arib va Shohsanam», «Oshiq Oydin», «Asilxon», «hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissai Zebo», «Tulumbiy», «Zavriyo», «Durapsho», «Bozirgon», «Xirmon dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she'rlarini, turli marosim qo'shiqlarini va o'zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig'inlari va bayramlarda qatnashadilar, to'y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san`ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

O'tmishda epik asarlarni xalqqa etkazuvchilar qatorida qissaxonlar ham bo'lgan. Qissaxonlar xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «folklorlashtirilgan» variantlarni, turli xil jangnomalarni choyxonalarda, turli yig'inlarda, xalq to'plangan joylarda yodaki aytganlar yoki qo'lyozma va bosma matn asosida o'zlariga xos ohangda o'qiganlar. []

Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhra», «hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy qissalarni ijro etish bilan birga, ko'proq diniy mazmundagi asarlarni ham o'qib yurganlar. Ayrim hollarda eng qobiliyatli qissaxonlarning o'zlari qissa tuzishgacha, ba`zan yangi asarlar yaratishgacha ko'tarilganlar, aytayotgan asarlariga ijodiy yondashganlar.

O'tmishda qissaxonlik shahar joylarda keng rivojlangan bo'lib, keyingi vaqtlarda, umuman, uchramaydi. Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Jumaniyoz qobulniyozov, Muhammadnodir Saidov singari olimlarning tadqiqotlari shuni

ko'rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o'zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqinini (variantlari bilan to'rt yuzdan ortiq) yozib oldilar.

O'tgan asrda ikki yuzdan ortiqroq dostonchi aniqlandi va ro'yxatga olindi. Ulardan Jumanbulbul, Jossoq, Bo'ron shoir, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Haybat soqilar xalq orasida shuhrat qozongan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Islom Nazar o'g'li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdulkarim o'g'li kabi etuk shoirlar baxshichilikdagi juda boy an'analar asosida muhim voqealarni tasvirlovchi yigirmadan ortiq yangi dostonlar yaratdilar.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning mazmuni

O'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qo'llangan usul va tadbirlarida nomoyondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya xaqidagi g'oyalar – hayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasida mujassamdir.

Hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida ortirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar yetib keldi asta shakkilanib bordi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini asosan jamiyatda yashagan xalq ruhi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari, ota-onalarning izaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr-muhabbati, qadr-qimmatini, insoniy eng yaxshi fazilatlarini u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlar va boshqalar asosida tarbiyalab borishimiz lozim. Bu yodgorliklar o'z muxtasarligi, qiziqarliligi, ravonligi, ohangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi), g'oyaviyligi bilan g'oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Tilshunos olim J.Abdullaev yozadi «Xalq tili adabiy tilning boyishi uchun bitmas-tugamas xazinadir. Xalq og'zaki ijodi namunalari esa xalq tilida yaratilgan san'at asarlari. Shu ma'noda ular xalq tilining yuksak shakli hisoblanadi»¹.

Shunday ekan, xalq tilining barcha jilolari saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ona tiliga bo'lgan hurmatini oshiradi. Ularning shaxs sifatidagi shakllanishida milliy ruhni kuchaytiradi.

O'zga xalqlarda bo'lganidek, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ham xalq hayoti bilan mustahkam bog'liqligi ularning ham milliy iziga xosligini, ham umuminsoniyligini belgilab beradi. Bu ikki xususiyat o'zbek xalq og'zaki ijodining mavzu doirasida, hayotiy voqelikni yoritishda, badiiy shaklida va nihoyat, tilida aksini topganligi yaqqol seziladi.

Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning, dostonlar til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qiladigan tomonlari bilan ajralib turadi.

Ertaklar asosan prozaik shaklda bilib, obrazlilik xususiyatiga egadir. Agar topishmoq va maqollarda ishtirokchi (personaj) kam, yoki alohidalikka qaratilgan bilsa, ertaklarning ishtirokchilari kip, hammasining iziga xosligi e'tiborga olingan biladi.

O'quvchilarga doston qahromonlari kimlar va nimalar bo'lsa, ishalarga xos xususiyat obrazlarda mujassamlanadi. Mehnatkash xalq vakili ochiqkingil, mard, mehr-shafqatli, halol, botir, aqilli bilsa, boylar ochkiz, bironing haqiga jabr qiladigan, qirqoq, manman, befahm, farosatsiz qilib tasvirlanadi. Tulki-ayyor, biri-yirtqich, ochkiz, quyon-sodda, qirqoq, eshak-

¹ 1. Ж.Абдуллаев. «Ўзбек халқ топишмо=ларининг лексиксемантик хусусиятлари», автореферат. Т., 1994 й.

mehnatkash, tuya-chidamli, ot-kuchli va chaqqon, it-mehrli, sigir, qiy-boylik va farovonlik timsolida ifodalanadi. Bunday ramziy ma'nolarni barcha personajlar ifodasida anglab olish qiyin emas.

Agar birontasining xususiyati almashib qolsa, boshlang'ich sinf o'quvchisi unga e'tiroz bildiradi. Hatto qiziqib o'rgangisi kelmaydi.

Sirdaryo viloyati Guliston tumani № 5-son o'rta umumiy ta'lim maktabining 4^{«A»} sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqarida «Alpomish» dostonini rollarga bo'lib o'rganganimizda bir necha o'g'il bolalar Alpomish bo'lishni so'rashdi, qizlar Barchinoy rolga kirishni, aytdi. Dostonda o'bro'zlar juda qiziqarli ijro etilmoqda edi. Dostonda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari uchun yetarlicha malumot olishdi. Uzoq itmishda yaratilgan dostonlarda, hozirgi kunda ishlatilmaydigan jihozlar, buyumlar, asbob-uskunalar, kiyim-bosh, qurol-yaroq va hokazolarning nomlari uchraydi. Bu sizlarning ma'nosiga izoh berish bilan xalqimiz ma'naviy va maishiy hayotlarida qanday davrlarni bosib itganini, ilm-fan, ishlab chiqarish qurollari va texnikaning qanday taraqqiy etib kelgani ham tushuntiriladi.

Ayrim kishilarda doston aytish mahorati kuchli biladi. Ular doston ishtirokchilarining tovush va harakatlarini izlari ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday dostonlarning tinglaganlarida notiqlik san'atining sirlaridan voqif bo'ladi.

Halq og'zaki ijodi namunalaridan maqollardir. Maqollar til va badiiy xususiyatlari bilan ertaklardan farq qiladi. Ular fikrni qisqa, aniq, linda va obrazli qilib ifodalashda nutq uchun juda zarur bilgan vosita hisoblanadi.

Maqollar mazmunan g'oyat kengdir. Bu xususiyat esa maqolga iz-izidan katta semantik kuchimlar imkonini beradi, bir maqol turli vaziyatda turlicha mazmunda qillanilishi mumkin.

Maqol iz tabiatiga kira, xalq ijodining falsafiy janri xisoblanib, u badiiy shakl jihatidan mukammal bir tarzda hamma vaqt birinchi iringa u yoki bu tugal fikrni, xulosani ilgari surishni qiyadi. Shakliy jihatdan yo she'riy, yo prozaik tuzilishga ega biladi. Maqollar yoyiq sodda gap, yoki qishma gap tarzida tuziladi.

Maqollardagi obrazlilik ham iziga xosdir. Alohida obraz ifatida kiringan holat, iziga ixshash holatlarga xos umumlashgan (tipik) xususiyatlarni jamlagan holda aks ettiradi. Real shakl bilan birga mijoziy shaklda ham tasvirlanadi. Mijoziylik maqollarning tasirchanligini kuchaytiradi. «Maqollar mohiyatini tig'ri anglamoq uchun u yaratilgan davrni nazarda tutish, uning ma'nosini anglab yetish, u qamragan sohani va maqol tarkibida bu sohaga xos xususiyatlarni ifodalagan sizlarni puxta irganib, mukammal tahlil etish lozim»²-deb sanaydi tilshunos olim Q.Samadov.

Boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilgan maqollar va o'quvchilarning darsdan tashqarida irganishi mumkin bilgan maqollar oddiy sizlardan tuzilgan bilishiga qaramasdan juda chuqur ma'nolarni anglatadi.

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. O'zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san'atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an'analarda og'zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sugdiylar, xorazmiylarga mansub urug' va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ulaming kattagina qismi o'zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo'lgan urug va qabilalarda patriarxal-urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumning yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan.

² Самадов +. «Ойбекнинг тил мащорати», Т., 1981, 60-бет.

Xorazmdagi o'zbek dostonchilik san'ati boshqa maktablarga mansub baxshilar uslubidan jiddiy farq qiladi. Bu erda so'z improvizatsiyasi asosiy rol o'ynamaydi, matn tom ma'noda variant bermaydi, balki musiqa yetakchilik qiladi. Ko'pchilik hollarda yozma manbaga ega Xorazm dostonlarining ba'zan aytuvchi qo'lida qo'lyozma matni ham bo'ladi. Xorazmda epik asarni baxshining bir o'zi yakka ijro etish bilan birga, jamoa ijrochiligi ham keng tarqalgan. Bunda uch-besh kishidan iborat ustoz baxshi rahbarligida ijrochilar jamoasi tuziladi. Dostonni ustoz dutorda boshlaydi, qolganlari unga g'ijjak va balomon bilan jo'r bo'ladilar. Naqarotni esa hammasi birgalikda ijro etadi.

Xorazm baxshilarining kuylari ko'p va xilma-xildir. Dostonning har bir qo'shig'i muayyan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar.

Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, bu erda qahramonlik dostoni «Alpomish» uchramaydi, aksincha, Xorazm baxshilari repertuaridagi ishqiy-romanik dostonlarning aksariyati respublikamizning boshqa erlarida mavjud emas.

Dostonlar tasnifi. O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p tarkibli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov, keyinroq M.S.Saidov, B.I.Sarimsoqovlar tomonidan tasnif qilindi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o'zbek xalq dostonlarini qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik hamda kitobiy kabi turlarga ajratadilar.³ M.S.Saidov esa o'zbek og'zaki an'anaviy dostonlarini qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romanik, jangnoma va tarixiy kabi turlarga ajratadi.⁴ B.I.Sarimsoqov esa xalq dostonlarining tarixiylik tamo-yillariga asoslanib, ularni qahramonlik, romanik va tarixiy kabi uch turga bo'ladi. Uning tasnifiga ko'ra, jangnoma va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning bir ko'rinishidan iborat.⁵ Darhaqiqat, eposning tarixiylik tamoyillari, voqelikni aks ettirish tarzi xalq dostonlarini qahramonlik, romanik va tarixiy dostonlar kabi uch yirik turga bo'lib o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

Qahramonlik dostonlari. O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich — qahramonlik va romanik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarining yaratilish davri, mundariyasi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamo-yillari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida muayyan yaqinliklar mavjud. Demak, biriga xos xususiyatning ikkinchisida zohir bo'lishi, sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi o'ringa surila borishi, qahramonlik dostonlaridan romanik motivlar va epizodlarning o'rin olishi tabiiy edi.

«Qahramonlik» termini o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda — keng ma'noda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi.

Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug'chilik munosabatlari, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayot tarzi bilan mahkam bog'liqdir. Bunday dostonlar xuddi shu turmush tarzining ifodasi sifatida patriarxal-urug'chilik jamiyatining so'nggi bosqichlarida yoki ilk feodalizm davrida turli urug'lar o'rtasida nizolar davom etayotgan va ular muayyan hududlarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida uyusha boshlagan davrlarda yaratilgan. Bir qator urug' va qabilalarning muayyan xalq sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarining paydo bo'lishi va shu munosabat bilan xalqlar hamda elatlarning o'z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlarni uchun boy material

³ Jirmunskiy V. M., Zarifov X. T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, s.58—293.

⁴ Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. T., 1969, 32-b.

⁵ Sarimsoqov B. Xalq dostonlarining tasnifi va oraliq shakllar masalasi. —O'TA, 1981, № 3.

bo'ldi. Mana shu kurashlar va tarkib topishlar, birlashishlar va joylashishlar jarayonida o'z-o'zini anglashning buyuk ifodasi sifatida qahramonlik eposi yuzaga keldi.

«Qahramonlik eposining mahobatli realizmi real ijtimoiy voqelikni qahramonlik idealizatsiyasi shakllarida tasvirlaydi. Shu bilan birga, qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo'ladi. Shu ma'noda ular ajoyib-g'aroyib, qiziqarli, ammo g'ayritabiiy emas, kuychining subyektiv uydirmasi va ijodiy fantaziyasiga asoslangan romanik fantastika bo'lmaydi. Qadimiy qahramonlik eposida ajoyib-g'aroyiblik mifologiyaning, xalq ishonch-e'tiqodining real unsuri sifatida namoyon bo'ladi...».⁶

Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holda «Alpomish» misolida etib kelgan.

Romanik dostonlar. O'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismi romanik dostonlardir. «Xalq romani», «romanik» terminlari turkologiyada shartli ravishda kabul qilingan bo'lib, ular og'zaki yaratilgan, ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan dostonlar guruhini bildiradi. V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar bu terminlarni muayyan dostonlar turiga nisbatan qo'llaganlarida, atamaning shartli ekanligini va ularni Evropadagi «xalq kitoblari» bilan aralashtirmaslik kerakligini ta'kidlagan edilar. Chunki bu xil dostonlarda ko'tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g'ayritabiiy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi.

O'zbek dostonchiligining qahramonlik eposidan keyingi yangi taraqqiyot bosqichi — romanik dostonlar o'tmish davrlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini sevgi mojarolari, qo'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga, hayotiy hodisalar tasviri belgilaydi. Ko'tarinki ishq tuyg'ulari va bu yo'ldagi jasorat ideali bu tip dostonlarning asosini tashkil qiladi. Ularda ulug'vor sevgi romantikasi bilan unga erishish yo'lidagi fantastik sarguzashtlar qahramonligi birlashib, chatishib ketgan.

Romanik dostonlarning syujeti sxemalari nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayritabiiy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni engib, o'z maqsadiga erishadi. Doston voqealari hashamatli saroylarda, shovqinli bozorlarda, sehrli bog'larda, tilsimli qo'rg'onlarda, vahimali g'orlarda, qo'rqinchli er va suv osti yo'llarida kechadi. Biroq bu dostonlarning har biri kompozision qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanishi, xarakteri va mazmuni jihatidan mustaqildir.

Fantastik voqealar, sarguzashtlar girdobida murakkab ijtimoiy voqelikni barcha real tafsilotlari, ikir-chikirlari va qarama-qarshiliklari bilan tasvirlash romanik dostonlarga xos sodda realizmni tug'diradi. hayotiy-maishiy xarakterdagi bunday realistik mavzu xalq yumori va didaktikasi xususiyatlari bilan mahkam bog'liqdir.⁷

Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik unsurlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalarga xos xususiyatlar ham mustahkam o'rin olgan. hatto bir dostonda bir necha mavzu baravar ishlangan bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib, bu tip dostonlarni beshta ichki turga bo'lish mumkin. Bular: a) jangnoma-dostonlar («Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek»); b) qahramonlik-romanik dostonlar («Yakka Ahmad», «Ernazar», «Rustam» turkumi, «Go'ro'g'li» turkumi); c) ishqiy-romanik dostonlar («Kuntug'mish», «Ravshan», Xorazm dostonlari); d) maishiy-romanik dostonlar («Sohibqiron», «Orzigul», «Erali bilan Sherali», «Shirin bilan Shakar», «Xurshidoy»); e) kitobiy dostonlar («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro», «Zevaxon»).

Jangnoma-dostonlar qahramonlik dostonlari bilan romanik epos o'rtasidagi alohida bosqichni tashkil etadi. Shu ma'noda ular alohida turni tashkil etishi mumkin. Ammo ularning qadimgi namunalarni bizgacha etib kelmaganligi sababli qo'limizdagi mavjud nusxalarida

⁶ Jirmunskiy B. M., Zamfov X. T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, s.378.

⁷ O'sha asar, 379-b.

romanik dostonlarning janr xususiyatlari yetakchilik qiladi va ular o'zlarining keyingi taraqqiyotida romanik eposga yaqinlashib bordilar hamda uning tarkibiy qismiga aylandilar.

Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo'shin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlar jangnoma-dostonlar deb yuritiladi. Jangnomalar qahramonlik dostonlari ta'sirida feodalizm davrida shakllangan. Agar bosh qahramon faoliyati qahramonlik dostonlarida yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo'lsa, jangnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida ko'rsatiladi.

Hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq orasida targ'ib qilish maqsadida jangnoma ko'rinishidan foydalangan. Natijada «Jangnomai Abo Muslim» «Jangnomai Sayid Battol G'oziy», «Jangnomai Amir hamza» kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'ib etgan shaxslarning nomi bilan bog'langan jangnomalar yuzaga kelgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan jangnomalarning qadimgi namunalariga «Rustami Doston», «Jangnomai Jamshid», «Qahramoni qotil», «Hushang», «To'maris» kabilarni ko'rsatish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi bo'lmish "Go'ro'g'li" dostoni o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Unda Afsonaviy xalq qahramonlari va ularning qahramonligi yozilgan. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni og'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu yilda Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga boy hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar— Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

"Alpomish" dostoni ajdodlarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi. U bugungi kunda o'zbek xalqining milliy birligi va ma'naviy uyg'onish, o'z-o'zini anglashining ramziga aylangan dostondir. Dostonlar, masallar, maqollar, hikmatli so'zlar, turmush tajribasidan olingan iboralar — piching, kesatish, kinoya ma'nolarini bildiruvchi iboralar maqsadni ifodalashda xizmat qiladi. O'quvchilarga masal personajlarining xarakterini ochib berish, shu maqsadni ifodalovchi ibora va jummalarning mazmunini, ya'ni asl va ko'chma ma'nolarini ham tushuntirish tekstning puxta tushunib olinishiga yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchilarni asardagi obrazlar bilan tanishtiradi. O'quvchilar asarda ishtirok etgan asosiy obrazlarni sanab ko'rsatadilar (Yapaloqqush, Ko'rqush, Boyqush, Kulonkir sulton, Malik shohin, Kordon, Sho'ranul, Turumtoy va boshqalar).

Boshlang'ich sinf o'qituvchi pedagogik mahorat bilan dostonda ishtirok etgan har bir obrazning xarakterli xususiyati o'quvchilarning ko'zi oldida ochib berishi lozim. Buning uchun o'qituvchi har bir asosiy obraz ustida suhbat o'tkazadi. Hamda ularning tarbiyaviy ahamiyatini, ijoboy, salbiy jixatlarini ochib beradi.

Asardagi obrazlarning xulq-atvori, masalning g'oyaviy mazmuni faqat suhbat yo'li bilan ochiladi. Suhbat o'quvchilarni aktivlashtiradi, mustaqil ishga o'rgatadi va tafakkurlarini o'stiradi.

II. BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI ASOSIDA TARBIYALASHNING AMALIY ASOSLARI.

2.1. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalashning amaliy ahamiyati

Dars o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy shakli ekanligi pedagogika fanida tilla ilmiy asoslangan. ulug' chex pedagogii yan amos komenskiy 1630 yillarda «sinf-dars tizimi»ning nazariy asoslarini yaratdi. maktab amaliyotida sinab kirildi. bu tizim butun dunyo biylab yoyildi. ammo uning keng kilamdagi tatbiq etilishi xx asrning boshlariga kelib amalga oshdi. chunki bu davrga kelib dunyoning juda kip joylarida ta'lim tizimida demokratik tamoyillarga amal qilish, keskin izgarish va islohatlarning riyobga chiqishi sinf-dars tizimini aktuallashtirgan edi. o'quvchilar sinflarga bilnadigan bildi, sinflarda esa ayrim fanlardan cheklangan vaqtga miljallangan iquv mashg'ulotlari-darslar itkazilishi yilga qiyildi. shunday qilib, maktab ta'limida dars eng birinchi va ta'sirli (foydali) mashg'ulotga aylanadi. olimlar, ilg'or iqtuvchilar darsning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ongli va faol izlashtirishlarini yilga qiyish maqsadida darsning xilma-xil turlarini ishlab chiqdilar. hozirgi davrga kelib har bir fan biyicha iziga xos dars turlari joriy etildi. ammo barcha fanlar uchun umumiy bilgan, didaktik qonun-qoidalarga rioya etadigan dars turlariga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz:

- 1) yangi bilim berish dars turi;
- 2) mustahkamlash va takrorlash dars turi;
- 3) nazorat qilish dars turi;
- 4) o'quvchilar bilim, kinikma va malakalarini tekshirish va baholash dars turi;
- 5) aralash dars turi.

Bu dars turlari deyarli barcha fanlar uchun umumiy bilib, fanning va mavzuning mos holda birortasidan foydalanadi. Agar darsda yangi bilim berish asosiy maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa yangi bilim berish dars turi amalga oshiriladi. bunda o'qituvchi va o'quvchining butun e'tibori yangi mavzuni tushuntirishga qaratilgan bo'ladi. Darsning tarkibiy qismlari turiga qarab belgilanadi. har xil dars turlarining tarkibiy qismlari bir-biridan farq qiladi. shunga qarab darsning reja-matni tayyorlanadi. unda quyidagi holatlarga alohida e'tibor beriladi. darsning mavzusi, maqsadlari, tashkil etilishi, itgan va yangi mavzuni bog'lash, yangi mavzuning mazmuni, uni mustahkamlash shartlari, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish va darsga yakun yasash, batafsil bayon etiladi.

Reja-matnda o'quvchilarga beriladigan umumiy savollar, ayrim o'quvchilarga mo'ljallangan topshiriqlar alohida qayd etiladi. darsning reja-matni qanchalik mukammal tayyorlansa dars ham shunchalik mazmunli va qiziqarli o'tadi. Agar o'qituvchi reja-matni nomigagina tayyorlansa dars bir qolipda, zerikarli va samarasiz bilib chiqadi. Singi paytlarda dars zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda rejalashtirilmoqda. Bunda darsning reja-matni o'rniga dars loyihasi ishlab chiqiladi. Loyihaning reja-matndan bir qancha afzallik va farqli tomonlari mavjud bilib, uni alohida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijod materiallari dars jarayonida o'rganilganda o'quvchilarning ma'naviy shakllanishiga ta'siri o'qituvchi tomonidan maxsus e'tiborga olinishi talab etiladi. Har bir fanining bilimlari, bilimlar tarkibidagi alohida mavzular o'quvchi ongini ilmiy-nazariy bilimlar bilan boyitibgina qolmasdan, uning ma'naviyatiga ta'siri ham mualliflar tomonidan miljallangan biladi. buni iqtuvchi dars jarayonida hisobga olganda, tarbiyaviy maqsadga erishishga harakat qilganda o'quvchining ma'naviy dunyosi boyib boshlaydi. oldingi bobda ma'naviyat kip qirrali jarayon ekanligi izohlangan edi. turli fanlar o'quvchi ma'naviyatining iziga mos bilgan tomonlarini rivojlantiradi. boshlang'ich sinflarda ona tili, iqish, odobnoma, atrofimizdagi olam fanlari tarkibiga xalq og'zaki ijod namunalari kiritilganligini

bayon etgan edik. ushbu materiallar o'quvchilarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir etib, ongi va axloqini takomillashtiradi.

birinchi sinf uchun «iqish kitobi» darsligini (tuzuvchilar: t./affarova, e.shodmonov va g.eshturdiyevlar) birinchi sahifasida o'zbekiston respublikasining bayrog'i va davlat gerbi rangli suratda berilgan. ikkinchi sahifasida davlat madhiyasi ifodalangan. mana shuning izi o'quvchilarda ma'naviyatning shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. o'quvchi bayroqdagi ramziy ranglar orqali vataniga muhabbat hissi jish uradi. gerbdagi tasvirni kirib kingli taskin topadi. +anotini keng yoygan humo qushi tinchlik, baxt-saodat va osoyishtalikni qiriqlayotgandek tuyulsa, porlab oltin nur taratayotgan quyosh kingillarga ziyo taratib, abadiy barqarorlikni, mangu hurriyatni tuhfa etadi, zalvarli tog'lar shu ilkada qinim topgan millatning suyanchig'i, yam-yashil dalani ilon izi bilib kesib itgan daryolar hosildorlikni, paxta va g'alla hosildan qilingan chamber rizq-riz, boyluk va faxr-iftixor tuyg'usini, eng tepadagi sakkiz burchakli shakl ichiga joylashgan hilol yurt jamolining kun sayin tilishib borishini aks ettirib turipti. bu tasvirni har bir o'quvchi izicha tasavvur etadi. butun qalbi va vujudiga ona-vatanining ramzi bilib singib boradi.

o'quvchilar bilan bayroq, gerb va madhiya haqida dars itkazdik. har bir o'quvchining erkin fikrlashi, iz kinglidagi tug'yonlarini bayon etishini riyobga chiqaruvchi holat hosil qildik.

o'quvchilar dunyodagi kiplab davlatlarning bayroqlarini kirganlar. lekin shularning orasida ular uchun eng chiroyli va yoqimli o'zbekistonning bayrog'i ekanligini bildirdilar.

«Nima uchun shunday deb hisoblaysan?»-degan savolimizga har xil javob berdilar. javoblarning ayrimlarini misol qilib keltiramiz: «bayrog'imizning rangi chiroyli», «yashil, oq, kik ranglar o'zbekistonga ixshaydi. osmoni oy va yulduzli, havosi toza (oppoq), yer yam-yashil bilgani uchun», «men chempion bilsam shu bayroq hammanikidan balandroq kitariladi», «prezident islom karimov maqullagani uchun», «bayroq izimiz yashayotgan davlatning ramzi bilgani uchun» va boshqalar.

o'quvchilarning javoblarida vatanga muhabbat, millat va xalqqa cheksiz hurmat hissi mavjudligi sezilib turadi. hali nutq boyligi kam bilganligi sababli ta'rif-tavsifi cheklanganroq biladi. davlat gerbidagi har bir tasvir mirg'ak qalblarning hurmat-ehtromiga yig'irilgan holda ta'riflandi.

davlat madhiyasi birgalikda qishiq qilib aytili. she'r sifatida yoddan ifodali iqib berildi. mazmuni izohlanganda o'quvchilarning faolligi ortib ketdi. she'r muallifi abdulla oripov va musiqa ijodkori mutal burxonovlar haqida iliq gaplar aytili. o'quvchilar televizorda kirganligini, yaxshi shoir va kompozitor ekanliklarini ma'lum qildilar.

she'rning mazmuni izohlanganda ilkamizning serquyoshligi, shirin-sharbat mevalarga boyligi, hamma uchun hayot kechirishda yildosh ekanligi ma'lum qilindi. bu ilkada buyuk olimlarning kipligi, ilm, fan va ijodga keng yil ochiqiligi quvonch bilan ta'kidlandi. butun jahon biylab shuhrati taralishi, bu shuhratni yanada kipaytirish mumkinligi izohlandi.

o'zbekiston oltin vodiylar maskani ekanligi, shu maskanda buyuk ajdodlar ruhi barhayot ekanligi, ularning qillab-quvvatlashi va kishilar g'ayratining jish urishi, butun olam ahlini mahliyo qilishi mumkinligini o'quvchilar anglab yetdilar.

o'zbek xalqining bag'ri kengligi, iymon-e'tiqodining mustahkamligi, yosh avlodning munosib vorislar bilib ulg'ayayotgani, shu haqsevar yurtining yanada gullab-yashnashini tasavvur etildi. ona yurtning mangu obod bilishiga har birimiz hissa qishishimiz mumkin va zarurligi bayon etiladi. bu vatanni qanchalik madh etilsa kam ekanligi, jahondagi eng qudratli, boy va gizal ilka bilishiga ishonch hosil qilindi. mashg'ulot singida o'quvchilarga o'zbekiston haqida yana she'rlar yodlash topshirildi. bu mashg'ulot o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasiga ta'sir kirsatdi. keyingi ma'naviyat darsini xalq og'zaki ijodi namunalaridan itkazishni ma'lum qildik.

o'quvchilar dasliklarga kiritilgan va kiritilmagan maqollarni irganishga, mazmunini izohlashga kirishdilar.

ikkinchi sinf «iqish kitobi» ning birinchi bilimi «ona yurtim-oltin beshigim» deb nomlangan. bilimning izi xalq maqoli hisoblanadi. birinchi mavzu ham maqollar bilan boshlangan. vatan haqidagi rangli rasmdan keyin quyidagi maqollar berilgan: *bulbul chamanni sevar,*

*odam-vatanni,
vatan-ona,
ostonasi-oltin.*

Qushlarning orasida eng chiroyli va yoqimli sayraydigan qush-bu bulbuldir. bulbullar chamanzor, bog'larda yashaydilar. har xil anvoyi gullarni yoqtirgani uchun shu gulzorlarda miriqib xonish qiladi. agar gulzor notinch va shovqin-suronli bilsa bulbul sayramay qiyadi. +ushga (bulbulga) chamanning gullab-yashnashi va asoyishtaligi yoqsa, odamlarga vatani yoqadi. vatanning tinch-totuvligi, ozod va obodligi, farovonligi insonlarni ham bulbuldek yayrab-yashnashiga imkon beradi. vatanning tinch va farovonligini, gullab-yashnashini odamlarning izlari mehnat va ijodlari bilan amalga oshiradilar. vatan qanday bilsa shundayligicha seviladi.

ikkinchi maqolda vatan onaga qiyoslangan. yosh bola uchun eng mi'tabar zot-bu onadir. bola quvonchi va tashvishini, shodligi va shuhligini, injiqligi va erkaligini, hamma-hammasini onasiga qiladi. ona hammasini kitaradi, hammasini yoqtiradi, hammasiga chidaydi. onaning bag'ri nihoyatda keng. shuning uchun bilsa kerak vatanni onaga qiyoslaydi. vatan ham minglab, milionlab farzandlarini iz bag'rida istirib, ulg'aytiradi. shuning uchun ham vatanning ostonasi oltinga tenglashtiriladi. ostonabu kirish, boshlanish demakdir. ostonasi oltindan bilgan elda odamlar baxtli-saodatli yashaydilar. chunki bu mamlakat boy, qudratli, tinch, osoyishta. uning tinchligini kira olmagan, taraqqiyoti yoqmagan ayrim kimsalar notinchlik chiqarishga harakat qilishlari mumkin. bu narsa 14 yillik mustaqilligimiz davomida bir necha bor kuzatildi. ammo qora niyatli kishilar nafaqat niyatlariga yetdilar, hattoki butun xalqning nafratiga duchor bildilar. sharmanda bilib, vatanining oltin tuprog'ini kiziga surishga zor bildilar. bag'ri keng xalqimiz va uning dono sardori bunday adashganlarni tavbalarini qabul qilib, kechirib kelmoqdalar.

tinchlik va totuvlik barqaror bilsa, juda tez orada vatanning har bir gishasi oltindanda qimmatliroq bilishiga shubha yiq.

o'quvchilar ona yurtning-oltin beshik ekanligini dalillovchi maqol va hikmatli sizlardan namunalar aytdilar hamda ularga izoh berdilar. mashg'ulot o'quvchilarning ma'naviy qiyofalarini boyishiga ta'sir etish bilan birga, yaxshi iqishi, a'lo xulqi bilan yanada barkamolroq bilishlarini ta'minladi.

Kitobiy dostonlarda qahramonlarning sevgi kechinmalariga alohida e'tibor beriladi. Qahramon yor uchun ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi, o'z ahvolidan fig'on chekadi, uzun monologlarda hijron azobidan zorlanadi, g'ayritabiiy kuchlarga yolvoradi, ya'ni qahramon kechinmalari ba`zan diniy, ba`zan o'ta sentimental mohiyat kasb etadi.

Tarixiy dostonlar. Tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan tarixiy dostonlar baxshilar repertuarida boshqa dostonlarga nisbatan juda kam o'rin egallaydi, tarqalish doiralari ham nihoyatda chegaralangan. Ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to'qima chatishib ketgan, ya'ni bunday asarlarda aniq tarixiy voqelikka folklorga xos ravishda yangi ma'no beriladi va baholanadi. Shu bilan birga, ularning mavzusi, obrazlari, tashigan g'oyalari aniq tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan bog'liqdir.

Tarixiy dostonlar tarixdagi aniq voqealar va faktlarni tasvirlash xarakteri, hujjatiylikning darajasi jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladilar. Ularni shu xususiyatiga qarab: a) tarixiy-qahramonlik; b) tarixiy-fantastik; c) tarixiy-konkret yoki yangi dostonlar; d) avtobiografik dostonlar kabi ichki turlarga bo'lish mumkin. Tarixiy – qahramonlik dostonlarining eng yaxshi namunalaridan biri «Oysuluv» dostonidir.

Tarixiy-fantastik dostonlarga «Tulumbiy», «Shayboniyxon» kabilarni kiritish mumkin. «Shayboniyxon» dostonida epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo'lsa, «Tulumbiy»da ayrim tarixiy shaxslar nomidan bo'lak hech narsa qolmagan, ya'ni unda syujet tarixiy voqelik asosida emas, balki ishqiy-sarguzasht yo'nalishida rivojlanadi. Bunday dostonlarda qachonlardir bo'lib o'tgan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o'taydi, xolos. Xalq orasida ertak va afsonalar holida juda keng tarqalgan «Xurshidoy» qissasining ikkinchi qism sifatida «Shayboniyxon» dostoniga kiritilishi va Shayboniyxonning hukmdorlik davri bilan bog'lanishi ham shu bilan izohlanadi.

Tarixiy-konkret yoki yangi dostonlarga XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari, xususan, sho'ro davrida baxshilar tomonidan yaratilgan asarlar kiradi. Bunday dostonlar o'zlarining mustahkam tarixiy asoslariga, qahramonlarining prototiplariga ega. «To'lg'anoy», «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo'zg'oloni», «Mardikor», «Amir qochdi», «Ochildov», «Hasan batrak» kabilar yangi dostonlarning eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Aniq faktlar va hujjatlarga asoslanish bunday dostonlarning bosh xususiyatidir.

Yetakchi baxshilar repertuarida avtobiografik asarlar ham muhim o'rin tutadi. Bunday dostonlar liro-epik xarakterga ega bo'lib, ularda baxshilar o'zlarining hayot va ijod yo'li asosida davrning muhim voqea-hodisalarini tasvirlaydilar. Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Tarjimai hol», Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Kunlarim», Abdulla Nurali o'g'lining «Kunlarim» kabi dostonlari buning yorqin namunalari.

Xalq dostonlari, uning janr xususiyatlari va turlari haqidagi bu umumiy fikrlar o'zbek eposi juda ham boy va rang-barang ekanligini ko'rsatib turibdi.

«Alpomish» dostoni

Bu doston qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunasi. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo'lishi uning bosh xususiyati hisoblanadi. Chunki dostonning butun mohiyati va asosiy yo'nalishini ana shu xususiyat belgilaydi. V.G.Belinskiyning ta'kidlashicha, «xalqning go'daklik zamonlarida uning hayotni ko'proq botirlikda, qahramonlikda ifodalanadi». Shuni uchun ham qadimiy qahramonlik eposi «xalqning faqat go'daklik davrlarida... uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqat qahramonlik g'alabalarida ko'ringan zamonlardagina paydo bo'lishi mumkin».⁸

Ko'chmanchilik hayoti va patriarxal-urug'chilik munosabatlari bir daraja saqlanib kelayotgan zamonlarda yaratilgan, jamiyat va inson hayoti masalalarini o'ziga xos reallikda — qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylagan «Alpomish» dostoni ham turkiy xalqlar patriarxal hayotidagi «Epik bosqich»ning poetik ko'zgidir. Doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo'lmagan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltay versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O'rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O'rta asr o'g'iz eposining muhim yodgorligi «Kitobi dadam Qo'rquq» tarkibidagi «Bamsi Bayrak» asari o'zining syujeti va kompozision qurilishi jihatidan «Alpomish» dostoniga juda ham yaqin turadi.

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, «Alpomish» dostoni o'zbek xalqi orasida ikki versiya va ko'plab variantlarda juda keng tarqalgan. O'tgan asrda uning variantlari yigirma sakkiz xalq baxshisidan o'ttiz uch marta (to'la matni, parcha, mazmuni) yozib olindi. «Alpomish» dostonining to'la variantlari yozib olingan baxshilar orasida Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Berdi baxshi, Bo'ri Sodiq o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Umir Safar o'g'li kabi yetakchi dostonchilar bor. Dostonning yozib olingan qo'lyozmalarining asl nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor arxivida saqlanadi. Bu variantlar orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan nusxa hisoblanadi. Unda

⁸ Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. T.: O'zdamnashr, 1955, 167—173-b.

shoirning yuksak dostonchilik mahorati to'la namoyon bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li «Alpomish» dostonini butun umr bo'yi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjonning obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo'lgan.

Doston yaratilgan davr va uning g'oyaviy mazmuni. Xalq og'zaki ijodi asarlarining yaratilish tarixini belgilash nihoyatda qiyin. Chunki ular og'zaki ijro va ijod davomida bizgacha muayyan o'zgarishlar bilan etib kelgan. Shuning uchun ham folklor asarlarining yaratilish davrini belgilaganda, ularda tasvirlangan asosiy masaladan ikkinchi darajalilarini farqlash, keyingi davrlarda kirib qolgan g'oya va motivlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

«Alpomish» dostonining syujet tarkibi va asosiy motivlariga diqqat qilsak, unda patriarxal-urug'chilik munosabatlari va shu hayot tarzini tasvirlash asosiy o'rin tutadi. Qolaversa, unda ayrim urug' oqsoqollarining hukmronlikka intilishidan iborat munosabatlar tasviri ham mavjud. Dostonda aks etgan bunday ijtimoiy hayot voqeliklari uning yaratilish tarixini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega. Shuni ham ta'kidlash kerakki, patriarxal-urug'chilik munosabatlarining emirila borishi va feodalizmning tug'ilish jarayoni hamma erda bir vaqtda va bir xilda sodir bo'lgan emas. Bu o'tish jarayoni ayrim erlarda hatto o'rta asrlargacha davom etdi. Dostonda tasvirlangan bunday ijtimoiy xayot tarzi va undagi bir qator motivlar tahlili orqali H.T.Zarifov «Alpomish» dostoni ko'chmanchi-chorvador qo'ng'iroq urug'i orasida patriarxal-urug'chilik munosabatlari emirila boshlagan davrda, mo'g'ullar istilosidan avval, Sirdaryoning quyi oqimlari va Orol dengizi atroflarida yuzaga kelgan, degan xulosaga keldi. Bu xulosada jiddiy asos bor. Chunki doston mazmuni, undagi obrazlar tizimi, shuningdek, dostonning muayyan joylar bilan bog'lanishi va xalqimizning etnogenetik taraqqiyoti bu fikrni tasdiqlab turibdi. Shundan kelib chiqib, doston dastlab ko'chmanchn-chorvador qo'ng'iroq qabilasi orasida X—XI asrlarda yaratildi, deyish mumkin. Qo'ng'iroq qabilasining turli hududlarga siljishi bilan doston boshqa urug' va elatlarga ham o'tib, ularning epik an'analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning «O'z» eposiga aylandi. Qo'ng'iroq urug'i bir qancha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlarning etnogenetik jarayonida muhim o'rin tutganligini hisobga olsak, bu masala yanada oydinlashadi. Dostonning o'zbek versiyasi XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida og'zaki epik an'anada «Yangilanish» jarayonini kechirdi va to'la shakllandi. Biroq uning asosi, undagi bir qator motiv va tushunchalar nihoyatda qadimiydir.

«Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug' birligini kuylovchi ulkan eposdir. Doston qo'ng'iroq urug'i boshliqlari— aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda bo'lajak qahramonlar— Alpomish va Barchinlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va qorajon bilan do'st tutinishi, raqiblari— qalmoq alplari bilan yonmayon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, etgi -yil tutqunda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, o'z eliga xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustiga kelishi hamda raqibini engib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi.

Sevimli yor, oila va shu bilan bog'liq ravishda yangi tipdagi urug' birligi uchun kurash hamda bunga to'sqinlik qiluvchi barcha qora kuchlarni engish «Alpomish» dostonining asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Chunki dostonda qo'ng'iroq qabilasida patriarxal urug'chilik munosabatlari emirila boshlagan bir davr ijtimoiy voqeligi tasvirlanadi. Jamiyat taraqqiyotining bu bosqichida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi patriarxal oilaning emirilishi va monogam oilaning tashkil topishiga olib keladi. Monogam oilaning vujudga kelishi progressiv hodisa bo'lib, patriarxal-urug'chilik jamiyati asoslarini bo'shashtiradi. Ana shu progressiv holat «Alpomish» dostonining g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi. Dostonda tasvirlangan davrda hali ijtimoiy guruhlar bir-birlaridan keskin ajralib chiqmagan, sinfiy ziddiyatlar kuchaymagan edi. Bu

davrda jamiyatning ijtimoiy munosabatlarida sinflar va ular o'rtasidagi kurash markaziy hamda yetakchi masala bo'lmay, balki qabila oqsoqollari, urug' boshliqlari va ularning qabila hayotida o'ynagan roli muhim edi. Shuning uchun ham epos qahramonlari umumqabila manfaatlari uchun kurashadilar va shu manfaatlarni bilan yashaydilar. Epos qabila oqsoqollari, urug' boshliqlari, shu jumladan, Boybo'ri, Boysari va boshqalarga ekspluatator sinf vakillari sifatida qaramaydi, ularga bir xilda baho bermaydi.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo'lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g'oya bo'rtib turadi:

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
Bor kuchimni bilagimga jiyaman,
Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,
G'animlarning tanasini uyaman,
Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman.
Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,
Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,
Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman.

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik ideyasi bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o'n olti urug' qo'ng'irotni eli, Boysun-qo'ng'irotni diyori bilan mahkam bog'langandir. Ular qaerda bo'lmasinlar, shu el, shu diyorning g'am-alamiga sherik bo'ladilar, shu el, shu diyor sog'inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o'z qabilasi, xalqi va yurtiga bo'lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida o'quvchini to'lqinlantirarli darajada tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqunlik davrida g'oz orqali vataniga salom yo'llashida; Barchin, Qaldirg'och, Yodgorlarning hijron alamlari tasvirida, qahramonning yo'ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo'yi tug'ilib o'sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot etti yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo'yganda yanada yuqori nuqtaga ko'tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi:

Asqar tog'i tumanmikan,
Men bilmayman bu yo'llarda,
Ota-enam omonmikan,
Ko'rganim yo'q qo'ng'irotni eli,
Qadimgiday zamonmikan?..
Toqqa chiqib Shunday qarab turibdi,
Yo'lab yotgan Boysun yurtin ko'ribdi.
Elatini ko'rib ko'ngli buzildi,
Ko'zdan yoshi munchoq-munchoq tizildi.

Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug' birligi g'oyasi bilan birlashib ketadi. Ajralish qabila a'zolari boshiga og'ir kulfatlar keltiradi. Barchin, qaldirg'och, hatto Boysarining o'zi ham o'zga mamlakatda xor-zor bo'lishlarini takror-takror aytadilar. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uylanishi qo'ng'irotni urug'ining yangidan birlashishiga olib keladi, Demak, Alpomishning nikoh uchun, oila uchun—“O'z uyi” uchun kurashi qonuniy ravishda qo'ng'irotni urug'ining yanada mustahkamlanishi, yangi tipda qaytadan birlashishi uchun kurashi hamdir. Dostonda bu kurash qahramonlik va mardlik, insonparvarlik va hurlik, vatanga va xalqqa muhabbat, turli elatlar hamda qabilalarning insoniy huquq uchun kurashda do'stligi va hamkorligi g'oyalari bilan uzviy bog'liq ravishda tasvirlanadi.

Dostonning asosiy obrazlari. «Alpomish» dostonining bosh qahramoni sahroyi bahodir, qo'ng'irotni urug'ining umidi va ishonchi Hakimbek — Alpomishdir. U mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, yovuzlik va yomonlikning ashaddiy

dushmani, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq eposining quyma obrazidir.

Qadimgi davrlar va o'rta asrlarda inson beqiyos kuch-qudrat egasi hisoblangan, Chunki o'sha sharoitda odamlarning ijtimoiy hayoti va tabiat hodisalariga qarshi kurashlarida jismoniy kuch hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuning uchun ham barcha xalqlarning qahramonlik eposlarida har ishga qodir pahlavonlar, yakkama-yakka olishuvlarda g'olib chiqqan bahodirlar, vahimali ajdar va devlarni mahv eta oladigan botirlar, tish-tirnog'igacha qurollangan, lak-lak dushman qo'shinini yolg'iz o'zi enggan alplar obrazlari yaratilgan. Alpomish ham xuddi shunday jismoniy jihatdan baquvvat, ma'naviy etuk ideal qahramondir.

Dostonda Alpomishning kuch-qudrati, bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida e'tibor berilgan. U etti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonlik sari yoydan otib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi. Yakkama-yakka olishuvda Qultoy va qorajondan g'olib chiqadi. Alpomishning kuch-qudrati Barchin shartlarini g'olibona bajarishida, unga talabgor qalmoq alplari bilan olishuvlarida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Dostonda qalmoq alplari grotesk usuli yordamida o'ta mubolag'ali tasvirlangan, Grotesk usuli — obrazning tashqi qiyofasini kuchli mubolag'alar bilan o'ta xunuk, g'ayritabiiy, kulgili qilib ko'rsatish — qahramon qarshisida turgan yovuz kuchni bo'rttirib, vahimali vajohatda gavdalantirish imkonini bergan. Masalan, ularning tashqi qiyofasi quyidagicha tasvirlanadi:

Shomurti yoqalab har yoqqa ketgan,
Ichida sichqonlar bolalab yotgan,
Izdan tushgan pishak oltoyda etgan.
Odam tushmas uning aytgan tiliga,
Besh yuz quloch arqon etmas beliga.
Bu qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,
Oh ursa olamni buzar tovushi,
To'qson molning terisidan kovushi.
Qahrlansa toshni yorar qahari,
To'qson qorning go'shti bo'lmas nahori,
Har iziga ketar ancha bahori.
Oltmish qari olachadan qalpog'i,
To'qson qo'yning terisidan telpagi
To'rt yuz to'qson quloch qo'lda hassasi,
Sarhovuzdan katta edi kosasi,
Shuni bilan o'n sakkizta nashasi,
To'qson qari bo'zdan bo'lgan kissasi.

Dostonda Alpomish va Qorajon ana shunday vajohatdagi kishilarga qarshi kurashadi. Dostonchi alplarning beso'naqay, ayni holda zabardast qiyofalarini tasvirlash orqali, bir tomondan, ularning Barchinga loyiq emasliklarini ta'kidlasa, ikkinchidan, Alpomish va Qorajonning jismoniy kuch-qudratini yaqqol ko'rsatadi.

Alpomish kimga qarshi va nima maqsadda kurashayotganligini juda aniq bilgan, gunohsizdan gunohkorni farq qila oladigan qahramondir. Uning olijanobligi ham shundadir. Bu narsa o'z yurtiga tinch ko'chib ketayotgan qo'ng'irotliliklarning ustiga qalmoq shohi Toychixon lashkar tortib kelganda, uning Qorajonga aytgan so'zlari tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi:

Xayolingga boshqa gaplar kelmasin,
Bu so'zim sha'ningga nomard bo'lmasin,
Qasd qilma, bek do'stim, qalmoq o'lmasin...
Bular emas bizga kelib gunohkor,
Qalmoqshoh amrini tutgan ko'p askar.

Shunday olijanob, sadoqatli, zukko, mard va bahodir yigit, o'ta zabardast to'qson alpning qarshiligini sindira olgan pahlavon kuch-qudratda o'zidan juda past, ma'naviy tuban Surxayil

mastonning nayrangi bilan etti yillik tutqunlikda qolib ketadi. Bunda Alpomish xarakterining yana bir qirrasini namoyon bo'ladi. U — g'ururli, boladek sodda, o'ta ishonuvchan va sof ko'ngil yigit.

Dostonning ikkinchi qismi maishiy hayot detallariga boyligi, real epizodlarni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Dostonchi etti yillik tutqunlikdan keyin Alpomishning o'z yurtiga qaytishida uni qarindoshlari, cho'ponlar, yilqichilar, karvonlar, turli toifadagi kishilar bilan uchrashtirish orqali yurtidagi ahvol bilan tanishtiradi, odamlarning qahramonga va uning raqibi Ultontozga munosabatini yaqqol gavdalantiradi. Bu epizodlar Alpomishni ideal qahramon va «tabiiy inson» sifatida har jihatdan xarakterlab beradi. Yo'ldagi uchrashuvlarda Ultontozning zo'rlik bilan Barchinni olish uchun to'y qilayotganligini bilgan Alpomish tarbiyachisi Qultoy qiyofasida to'yxonaga keladi. Zolim raqib tomonidan kamsitilgan va o'g'li hajrida alam tortayotgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, xo'rlangan, o'lim bilan qo'rqitilgan o'g'li Yodgorning boshini silaydi, Ultontozga xushomadgo'y bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi, o'lan aytishadi va o'zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini yana bir bor namoyish qiladi.

Alpomishning tutqunlikdan keyingi xatti-harakatlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, uning Ultontozga qarshi kurashi qahramonning uzoq muddatli tutqunlik davrida o'z vatanida hokimiyatini zo'rlik bilan tortib olib, xotini Barchinni olmoqchi bo'lgan zo'ravon — uzurpator shohga qarshi o'z hokimiyati, o'z oilasi uchun olib borgan qahramonlik kurashidir.

Alpomishning yori Barchin, singlisi Qaldirg'och, do'sti Qorajon, ota-onasi va qaynatasiga nisbatan iliq munosabatlarida, mashhur yilqichi, qadrdoni va tarbiyachisi Qultoy bilan ota-bola, cho'pon Qayqubod bilan do'st tutinishi tasvirida uning chin insoniy sifatleri yaqqol namoyon bo'lgan.

2.2. Tadqiqot yuzasidan o'tkazilgan yakuniy tajriba-sinov ishlari natijalari.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilariga xalq og'zaki ijodi asosida tarbilash, uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin egallab kelgan. Xalq og'zaki ijodining inson taqdiridagi ahamiyati shundaki u doimo o'zining hayotiyligi, ta'sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni mexr-muxabbat ruxida tarbiyalash doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma'naviy jihatdan hal etishda o'z ta'sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining mehnatsevarligi tarix to'fanlariyu yig'inlariga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, toblanib, har bir davrda o'z faoliyatini takomillashtirib, avlodlar tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi.

Biz tajriba-sinov ishlarini Sirdaryo viloyati Guiston shahridagi № 5- maktabning boshlang'ich sinflarida olib borildik.

Bunda biz o'quvchilarni dars jarayonida olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratdik.

Maktabda 1-4 sinf o'quvchilarini jalb etdik. Ulardagi tajriba sinov ishlarimizni, o'zbek xalq og'zaki ijodining namunaliriga asoslanib o'tgazdik.

Tajriba-sinov guruhida 65 o'quvchi ishtirok etdi. Nazorat guruhida esa 45 nafar o'quvchi ishtirok etishdilar. Buni qo'yidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

| Maktab | Sinflar | Sinov tajriba guruhi | Sinflar | Nazorat guruhi | Izoh |
|-----------|---------|----------------------|---------|----------------|------|
| 5- maktab | 1 | 20 | 4 | 10 | |
| | 2 | 20 | 3 | 12 | |
| | 3 | 13 | 2 | 12 | |
| | 4 | 12 | 1 | 11 | |

Sinov-tajriba guruhida biz quyidagi ishlarni amalga oshirdik.

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar elementlaridan ona tili darslarida foydalandi.
2. Hamkorlikda o'qitish usuli.
3. Tanqidiy texnologiya.
4. Aqliy hujum metodi.
5. Klaster usuli

Ularning barchasi o'quvchilarning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqilligini ta'milaydi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Biz tadqiqot davomida o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, quyidagi topshiriqlar berdik.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo'lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g'oya bo'rtib turadi:

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
 Bor kuchimni bilagimga jiyaman,
 Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,
 G`animlarning tanasini uyaman,
 Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman.
 Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,
 Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,
 Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman.

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik ideyasi bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o'n olti urug' qo'ng'iroq eli, Boysun-qo'ng'iroq diyori bilan mahkam bog'langandir. Ular qaerda bo'lmasinlar, shu el, shu diyorning g'am-alamiga sherik bo'ladilar, shu el, shu diyor sog'inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o'z qabilasi, xalqi va yurtiga bo'lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida o'quvchini to'lqinlantirarli darajada tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqunlik davrida g'oz orqali vataniga salom yo'llashida; Barchin, Qaldirg'och, Yodgorlarning hijron alamlari tasvirida, qahramonning yo'ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo'yi tug'ilib o'sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot etti yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo'yganda yanada yuqori nuqtaga ko'tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi:

Asqar tog'i tumanmikan,
 Men bilmayman bu yo'llarda,
 Ota-enam omonmikan,
 Ko'rganim yo'q qo'ng'iroq eli,
 Qadimgiday zamonmikan?..
 Toqqa chiqib Shunday qarab turibdi,
 Yoylab yotgan Boysun yurtin ko'ribdi.

Elatini ko'rib ko'ngli buzildi,
Ko'zdan yoshi munchoq-munchoq tizildi.

O'quvchi yoshlarning orzusi biror g'oyaga asoslansagina, hayotiy va umrboqiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun bosh g'oyamiz-O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat bo'lish orzusi, har bir shaxs manfaatiga, ma'naviy-axloqiy qobiliyati faoliyat mezoniga aylanib bormog'i lozim. aqliy va axloqiy qobiliyat muayyan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitda shakllanib, o'quvchining ma'naviy salohiyati, umuminsoniy tarbiyai, tafakkur darajasi, tabiat va jamiyat qonunlarini qay darajada tahlil eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlarning naqadar yorqin yoki sust namoyon bo'lishi mumkinligi izlanishlar jarayonida tadqiq etildi.

Ma'naviy va aqliy tarbiya zamirida axloqiy poklik, mehnat va mehnatkash insonga halol munosabat, madaniy saviya va iftixor turadi. Aqliy madaniy jihatdan yetuk shaxsning tuzilmasini: Tejamkorlik, ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, halollik, samimiylik, milliy g'urur, sodiqlik, kamtarlik, mehribonlik, kasbiy mas'ullik, bilimdonlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik tashkil etadi. Tuzilma pirovardida esa shaxsning intilishi, faolligi va kafolatlangan natijaga erishuvi turadi. Iqtisodiy tarbiyani berishning samarali mezonlari aqliy barkamollik, aqliy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tejamkorlik va ijodkorlikni tarbiyalash ekanligi tadqiq etildi.


O'z-o'ziga ishongan va o'z mustaqil fikriga ega bo'lib, uni erkin namoyon etadigan inson mehnatga halol munosabatda bo'ladi. O'z imokniyatlariga ishonmaydigan, qoniqmaydigan yoki norozi bo'lgan inson mehnat faoliyatida turli xil yalqovlik va ko'zbo'yamachiliklarga yo'l qo'yadi. Adolat, diyonat va halollikdan chekinish paydo bo'ladi. Kasbga, odamlar va atrof-muhitga mehr, ijodkorlik, kasb mahoratini egallash sari intilish so'na boshlaydi. aqliy qobiliyat uyg'unligidagi muvozanat buziladi. Natijada ma'naviy-axloqiy tarbiyani berishga xos motivlar inqirozi bekorchilik, ishsizlik va hatto bezorilik kabi turli xil jinoyatlar kelib chiqadi. Bunday inqiroz nosog'lom aqliy faoliyat jarayonida ham paydo bo'ladiki, uning ijobiy yechimi rahbar shaxs ma'naviyati va mahorati bilan bog'liq ravishda hal etiladi. Inson tabiiy-ijtimoiy mavjudot sifatida o'zining moddiy ehtiyojlari qatorida ma'naviy ehtiyojlarini ham qondira boradi. Ammo har qanday ehtiyoj negizida aqliy-madaniy ehtiyoj turmog'i lozim.

Ko'rsatmalar shuni ko'rsatadiki olib borilgan tadqiqot-sinov ishlarimiz yaxshi natija berdi. Sinov-tajriba ishlarida 130 nafar o'quvchilar ishtirok etgan bo'lsa, ular 85,6% o'zlashtirishga erishdilar. Nazorat guruhida esa 53,3 % o'zlashtirishga erishdilar.

O'tkazilgan tajriba ishlarining natijalari quyidagi 2 jadvalda keltirildi.
Jadval – 2

| T.b № | Sinflar | O'quv chilar soni | Nazorat guruhi | | | O'quv chilar soni | Tajriba-sinov guruhi | | |
|----------|--------------------------------|----------------------|----------------|----------------|-------------|-------------------------|----------------------|----------------|-------------|
| | | | Past % | O'rtac ha % | Yuqori % | | Past % | O'rta cha % | Yuqori % |
| 1 | 1 ^a -1 ^b | 25 | 35 | 45 | 20 | 25 | 20 | 50 | 30 |
| 2 | 2 ^a -2 ^b | 25 | 31 | 47 | 22 | 25 | 18 | 55 | 27 |
| 3 | 3 ^a -3 ^b | 28 | 28 | 42 | 30 | 28 | 26 | 56 | 38 |
| 4 | 4 ^a -4 ^b | 27 | 25 | 48 | 27 | 27 | 12 | 49 | 39 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, biz olib borgan tajriba-sinov yaxshi samarali o'z natijalarini berdi.



UMUMIY XULOSALAR

Ma'naviy-axloqiy va aqliy tarbiyaning yuksak darajasi asosida milliy g'oya va milliy g'urur turadi. O'quvchi shaxs va fuqaro sifatida o'z allomalarining insoniy fazilat va xislatlar to'g'risidagi qarashlari, hamda millati tarixini mukammal bilmog'i lozim. Ana shunda dini, urf-odatlarini, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarini qadrlaydi, undan doimo faxrlanadi. Faxrlanish tuyg'usi sog'lom fikr ruhida o'z shogirdlariga o'tadi. Fikrlarni g'oya darajasiga ko'tarish uchun uning ta'sirchanligi, salmog'i va samaradorligiga erishish lozim. O'quvchi ma'naviy-axloqiy qobiliyat sub'ekti ham hisoblanadi-ki, bu jarayon tadqiqot ishida o'zining ilmiy-nazariy yechimini topdi.

O'z millati va davlatining aqliy salohiyati va milliy qadriyatlarini bilish va anglash, milliy g'oyaning aniq shart-sharoitida o'quvchining aqliy ijobiy fazilatlarga erishish maqsadlari sari intilishida namoyon bo'ladi.

O'quvchi yoshlarning orzusi biror g'oyaga asoslansagina, hayotiy va umrboqiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun bosh g'oyamiz-O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat bo'lish orzusi, har bir shaxs manfaatiga, ma'naviy-axloqiy qobiliyati faoliyat mezoniga aylanib bormog'i lozim. aqliy va axloqiy qobiliyat muayyan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitda shakllanib, o'quvchining ma'naviy salohiyati, umuminsoniy tarbiyai, tafakkur darajasi, tabiat va jamiyat qonunlarini qay darajada tahlil eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlarning naqadar yorqin yoki sust namoyon bo'lishi mumkinligi izlanishlar jarayonida tadqiq etildi.

Ma'naviy va aqliy tarbiya zamirida axloqiy poklik, mehnat va mehnatkash insonga halol munosabat, madaniy saviya va iftixor turadi. Aqliy madaniy jihatdan yetuk shaxsning tuzilmasini: Tejamkorlik, ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, halollik, samimiylik, milliy g'urur, sodiqlik, kamtarlik, mehribonlik, kasbiy mas'ullik, bilimdonlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik tashkil etadi. Tuzilma pirovardida esa shaxsning intilishi, faolligi va kafolatlangan natijaga erishuvi turadi. Iqtisodiy tarbiyani berishning samarali mezonlari aqliy barkamollik, aqliy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tejamkorlik va ijodkorlikni tarbiyalash ekanligi tadqiq etildi.

O'z-o'ziga ishongan va o'z mustaqil fikriga ega bo'lib, uni erkin namoyon etadigan inson mehnatga halol munosabatda bo'ladi. O'z imokniyatlariga ishonmaydigan, qoniqmaydigan yoki norozi bo'lgan inson mehnat faoliyatida turli xil yalqovlik va ko'zbo'yamachiliklarga yo'l qo'yadi. Adolat, diyonat va halollikdan chekinish paydo bo'ladi. Kasbga, odamlar va atrof-muhitga mehr, ijodkorlik, kasb mahoratini egallash sari intilish so'na boshlaydi. aqliy qobiliyat uyg'unligidagi muvozanat buziladi. Natijada ma'naviy-axloqiy tarbiyani berishga xos motivlar inqirozi bekorchilik, ishsizlik va hatto bezorilik kabi turli xil jinoyatlar kelib chiqadi. Bunday inqiroz nosog'lom aqliy faoliyat jarayonida ham paydo bo'ladiki, uning ijobiy yechimi rahbar shaxs ma'naviyati va mahorati bilan bog'liq ravishda hal etiladi. Inson tabiiy-ijtimoiy mavjudot sifatida o'zining moddiy ehtiyojlari qatorida ma'naviy ehtiyojlarini ham qondira boradi. Ammo har qanday ehtiyoj negizida aqliy-madaniy ehtiyoj turmog'i lozim.

Hozirda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda dastur va reja asosida ushbu ta'limni amalda qo'llay olish munosabatlari o'zining halollik, insof, diyonat, vijdon, bilimdonlik va ishbilarmonlik kabi qonunlariga ega. Aynan bu qonunlar ma'naviy-axloqiy tarbiyani berish tizimida amal qilinib kelayotgan qonunlar hisoblanadi. Shaxsning yuksak tarbiya darajasida egallagan bilim va tushuncha, tasavvurlari mahorati madaniy va rivojlangan jamiyat tizimini yaratadi.

Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida quyidagi ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, ya'ni, o'quvchi shaxsining aqliy tarbiyasi negizi va mezonida:

-yosh avlod qalbiga ona-Vatanga mehr-muhabbat tuyg'usini milliy g'oya va milliy mafkura, davlatimiz ramzlari mohiyati hamda milliy qadriyatlar asosida yetkazish;

- uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarni aqliy muammolarni yechimini topishlarida ongli va asosli ravishda yo'naltirishning samarali tizimini yaratish;

-oila, maktab va mahalla hamkorligida yoshlarni aqliy barkamolligini ta'min etishda bekorchilik, ishsizlik kabi zararli illatlar va yot unsurlardan saqlash.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa yasab, shsni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, masallarni o'rganish o'quvchilarga ahloqiy ta'lim berishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. «Masal, axloqiy mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko'proq she'riy yo'lda yoziladi. Masalda insonlarga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan hissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T: 2011
2. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:Sharq. 1997.- 64 b.
3. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. - T.: O‘zbekiston. 1998.- 480 b.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T: 2008
5. Abdullaev M. Tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat. Muloqot. 1999. №3. 11-13 b.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O‘qituvchi. 1992.-62 b.
7. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. T.: “Sharq”, 1998.
8. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Akademik nashr. T.: “Fan”, 1999.
9. Alpomish. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti. T.: “Fan”, 1999.
10. Alpomish. Berdi baxshi varianti. T.: “Yozuvchi”, 1999.
11. Alpomish. Po‘lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti. T.: “Yozuvchi”, 1999.
12. Dolimov S. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1967. 230 b.
13. Jumaboyev M. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. T.: O‘zbekiston, 2002. 157 b.
14. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. T.: O‘zbekiston, 2002. 320
15. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T.: 2006. 225 b.
16. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: Meros. 1992. - 176 b. 145 b.
17. Kalila va Dimna (V.Zohidv tahriri ostida). T.: O‘zbekiston, 1992. 150 b.
18. Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlilik. T.: “Fan”, 1985.
19. Mirzayeva S. O‘zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. T.: “Fan”, 2004.
20. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. I va II kitoblar. T.: “Mehnat”, 1999 va 2000.

21. Krilov I.A.. Bo‘ri bilan qo‘zichoq. T.: 1989. 50 b.
22. To‘xliiev B. Adabiyot. T.: O‘qituvchi, 2002. 236 b.
23. Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993.-223b.
24. Qur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.- T.: Cho‘lpon. 1992.- 544 b.
25. Yuz bir hadis va uning sharhi.- T.:Mehnat, 1991.-48 b.
26. Yusupov Z.Yu. Mustaqillik sharoitida ta‘lim-tarbiya ishlarining dolzarb muammolari. J.Ta‘lim va tarbiya. - 1997. № 1-2. 48-59 b.
27. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildlik. J.1-2. Tuzuvchi mualliflar: K.Xoshimov, S.Ochil.- T.: O‘qituvchi. J.1. 1995. - 464 b.; J.2. 1999.- 480 b.
28. O‘zbek pedagogikasi tarixi.: Oliy o‘quv yurtlar uchun qo‘llanma. A.Zunnunovning umumiy tahriri ostida. - T.: O‘qituvchi. 1997.- 272 b.
29. Qurbonov Sh.A., Seytxalilov E., Quronov M., Axliddinov R., Majidov N., «Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar».T.: «Akademiya», 2002.–280 b.
30. Quronov M. Maktab ma‘naviyati va milliy tarbiya.- T.:Fan. 1995.- 117 b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR:

1. www.literature.uz. Adabiyot fani yuzasidan ma‘lumotlar olish bazasi.
2. www.google.ru. Iсталgan saytlar manzillaridan xabardor qiluvchi sayt.
3. [http; ii w.w.w. referat. uz](http://ii.w.w.w.referat.uz). Turli fanlardan referatlar to‘plamiga boy sahifa.
4. [http; ii dialup frenet.uz](http://ii.dialup.frenet.uz). Internet foydalanuvchilari uchun informasion sahifa.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi Xudoyberdiyeva Umida "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Ta'lim tajribalaridan bizga ayonki ta'limni tashkil etishning asosiy shakli dars bo'lib, unda fan bo'yicha ma'lum bilimlarning asosiy mazmuni tushuntiriladi. Bu esa o'quvchi uchun muhim daqiqa albatta, lekin o'sha darsdan olingan ma'lumotlarni amalga tatbiq etish, ya'ni darsdan va maktabdan tashhari mashg'ulotlar o'quvchilarda olingan bilimlarini ko'nikma va malakaga aylantirishda muhim o'rin egallaydi. Natijada jamiyat taraqqiyoti uchun zarur malakali kadrlar tayyorlashdek ta'limning bosh vazifasi o'z yechimiga ega bo'ladi.

Talaba Xudoyberdiyeva Umida "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi dolzarb muammoni tadqiq etilishiga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, umumiy xulosalar, adabiyotlar ro'yhatii o'z ichiga oladi.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi ishonarli asoslangan. Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilib, tadqiqot olib borishning yo'nalishi aniqlangan, shuningdek, maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy farazlari, metodologik asoslari, metodlari va boshqa jihatlari tugal bayon etilgan.

Ishning asosiy qismida mazkur muammoning ilmiy-nazariy tahlili bayon etilgan, boshlag'ich sinf o'quvchilarida darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda asosiy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash imkoniyati katta ekanligi tahlil etilgan hamda bunday mashg'ulotlarni tashkil etish metodologik va nazariy bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni yanada mustahkamlashga olib kelishi amaliy-ilmiy

asoslangan.

Talaba Xudoyberdiyeva Umida har bir bobdan keyin va ishning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda tegishli xulosalar chiqargan. Xudoyberdiyeva Umidaning mazkur bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan bo‘lib, uni himoyaga tavsiya etish mumkin deb xisoblayman.

Taqrizchi:

5-maktab o‘qituvchisi

G.Islamboeva

**Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishi Xudoyberdiyeva
Umidaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq dostonlari asosida
tarbiyalash“ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rahbar**

X u l o s a s i

Talaba Xudoyberdiyeva Umida «Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash» mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi dolzarb muammoni tadqiq etilishiga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, umumiy xulosalar, adabiyotlar ro'yhatini o'z ichiga oladi.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi ishonarli asoslangan. Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilib, tadqiqot olib borishning yo'nalishi aniqlangan, shuningdek, maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy farazlari, metodologik asoslari, metodlari va boshqa jihatlari tugal bayon etilgan.

Ishning asosiy qismida mazkur muammoning ilmiy-nazariy tahlili bayon etilgan bo'lib ishning metodologik va nazariy bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni yanada mustahkamlashga olib kelishi amaliy asoslangan.

Talaba Xudoyberdiyeva Umida har bir bobdan keyin va ishning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda tegishli xulosalar chiqargan. Xudoyberdiyeva Umidaning «Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash» mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan bo'lib, uni himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar

N.Nuraliyeva